



## BOLALARNING RIVOJLANISHIDA GNOSTIK HISSİYOTNING O'RNI

Xolmatova Yodgoroy Baxtiyarovna

Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7435588>

### ARTICLE INFO

Received: 04<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 13<sup>th</sup> December 2022

Online: 14<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

Rivojlanish, gnositik hissiyot, xulq-atvor, metod, nutqiy faoliyat, ta'lim tarbiya jarayoni.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada bolalarning rivojlanishida gnostik hissiyotlar va uning bola rivojlanishidagi o'rni, bola rivojlanishidagi ta'lim tarbiya jarayonining pedogoglarning ilmiy qarashlari haqida fikrlar berilgan.*

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Insonning xulq-atvorini boshqaradigan narsalarning barchasiga, jumladan dunyoqarash, axloqiy va estetik ideallar, madaniy me'yorlarga til va nutqiy muloqot orqali erishiladi. Inson butun hayoti mobaynida borliqni anglash jarayonida ishtirok etadi. Bilishga bo'lgan ehtiyoj ko'p jihatdan til orqali qondiriladi.

Insonning yana bir o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud, bu – boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandlik, «emotsional muloqotga ehtiyojmandlik»dir (K.Obuxovskiu).

Aynan shu ehtiyoj tufayli dastlab til paydo bo'lgan. Muloqotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so'zlashni o'rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to'g'ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nimalar

deyishayotganliklarini tushunishi va o'zi ham so'zlashi lozim. Bu o'rinda «tilning uch sifati» (tajribani jamlash va sintez qilish – fikrga jamlash – muloqotni amalga oshirish) haqida so'z yuritish mumkin (V.A.Zvegintsev).

A.A.Leontev tomonidan til va nutqni farqlashdan tashqari odam ongida mavjud bo'lgan hamda unga tildan foydalanish, so'zlash va aytilgan so'zlarni tushunish (tilga qobiliyat) imkonini beruvchi bir narsani ham ajratib ko'rsatgan. Bu narsa – nutqiy faoliyatni ta'minlash mexanizmidir.

Odatda nutqiy faoliyat to'rtga ajratiladi: o'qish, yozish, so'zlash, tinglash. Ular o'zaro juft holatda bog'lanadi va til tizimini amalga oshirishning ikki shakli – og'zaki va yozma shakli orqali belgilanadi.

Bolaning borliqning yangi tomonlariga yo'naltirilganligi: amaliy faoliyatdan olamni, so'ngra odamlarni, ularning munosabatlarini o'rganishga o'tish uangi maqsadlarga xizmat qiluvchi yangi muloqot vositalari zaruratini keltirib chiqaradi



Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish bo'yicha o'sishi, vazinning kuchini ortishi, sezgi a'zolarini mukammallashuvi, xarakatlarni to'g'ri boshqara bilish bilan bog'liqdir.

Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarkibiy tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi. Bolalar egallashlari lozim bo'lgan mazmuni

tanlash, uning egallab olishiga rahbarlik qilish kattlar tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonda amalga oshiriladi. Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi. Keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o'zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003. -40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni. -T.: Sharq, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola xuquqlari kafolatlari to'g'risida" gi qonun T. O'zbekiston. 2004 y
4. Qodirova M.R., Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent, 2006 yil.
5. Shodiyeva Q. Kichkintoylarni o'qish va yozishga o'rgatish. Toshkent, "O'qituvchi" - 2002 yil.